

AHMAD DONISHNING TA'LIMNI ISLOH QILISHDAGI AMALIY FAOLIYATI**Nusratjon Qodirov Uchqun o'g'li**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, xodimi

qodirovnusratjon@gmail.com

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro madaniyatining taraqqiyparvar arboblari orasida Ahmad Donish yetakchi o'rinda turadi. Ahmad Donish 1827-yilda Buxoro shahrida kambag'al mulla oilasida tug'iladi. Donish – bu uning adabiy taxallusidir. Boshi kattaligi uchun uning zamondoshlari Ahmad Kalla deb atashgan. Tabiiy va aniq fanlarni yaxshi bilgani uchun uning taxallusi yoniga Muhandis deb laqab ham qo'yanlar. Uning ota-onasi savodli odamlar bo'lishib, ammo nochor holda yashashgan. Uning otasi dehqon oilasidan Sug'ut qishlog'idan shaharga o'qishga kelgan va o'qishni tamomlagandan keyin Buxorodagi masjidlardan birida mullachilik qilgan.

Ahmad Donish yoshligidan xattotlik va naqqoshlikka qiziqqan. O'zining bu haqda yozishicha, 7-8 yoshlik chog'ida devorlarga bir siqim kesak bilan naqsh va rasmlarni, arab yozuvlarini yozar edi. Keyinchalik madrasada o'qish yillari chog'ida moddiy yetishmovchiliklar Donishga xattotlik va naqqoshlik bilan jiddiy shug'ullanishga to'g'ri keladi, chunki bu kasb orqali o'zining moddiy ehtiyojlarini qondira olar edi. Shunday qilib Ahmad Donish xattotlik bilan shug'ullanib el og'ziga tushadi. Bu xattotlik san'atini mustaqil o'rganib, boshqa ustalardan, o'z zamondoshlaridan farqli ravishda bir qator yangi qoidalarni ishlab chiqadi. Do'stlari va tanishlarining iltimoslariga ko'ra, ularga poetik devonlar yozib, ularni chiroyli va naqshlar bilan bezab ko'chirib beradi. U "suls", "rayhon", "zulf" usullarini mohirona egallagan edi.

Ahmad Donish xattotlik san'ati orqali nafaqat moddiy ahvolini yaxshilagan, balki ma'naviy salohiyatini ham tobora yuksaltirib, ma'naviy kamolot sari qadam-baqadam tashlab borgan. U o'zining sevimli kasbining ketidan nafaqat Buxoro mintaqasi balki butun bir Turkiston zaminida taniqli xattot sifatida e'trofga erisha olgan. U ko'chirgan asarlarning salmog'i o'sha davrda g'oyat baland edi. "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho" kabi Sharq donishmandlari asarlarini, ayniqsa Mirza Abduqodir Bedil asarlarini ko'proq chiroyli naqshlar va bezaklar bilan ko'chirib yozadi. Bu haqda Ahmad Donishning o'zi shunday yozadi: "Men darsdan so'ng xattotlik bilan shug'ullanar edim va bir oyda Bedilning 24 ta qo'lyozmasini 30 ta qismga ko'chirib yozardim. Va bu qo'lyozma uchun menga 20 tangadan 30 tangagacha haq berishdi. Tangalarning katta qismini olib qo'yib, kam qismini o'zimga sarf qildim".¹

Ahmad Donish Ibn Sino, Umar Xayyom, Navoiy, Fuzuliy va ayniqsa Bedil asarlarini juda qiziqib o'qidi. Ahmad Donish tomonidan Fuzuliyning ozarbayjon, turk tilida yozilgan she'rlaridan olgan parchalari juda qiziqarlidir. Bu esa Donishning Fuzuliy g'oyalari, uning astronomiya haqidagi fikrlari bilan qiziqqanligi haqida dalolat beradi. Ahmad Donish Bedil asarlarini yuqorida ko'rsatilgandek, uning falafiy qarashlarini, xususan, koinotning abadiyligi, materiya, ruhning jismga munosabati va hokozalar haqidagi qarashlarni tahlil qiladi. Ahmad Donish astronomiya asoslarini o'rganishga ko'p e'tibor berdi. O'zining aytishiga qaraganda, astronomiyani "Mirza Abdulfattoh Munojimdan o'rgangan. Ahmad Donish qo'lyozmalarining birida o'z muallimining quyidagi rivoyatini keltiradi:

Andak-andak az ilm hosil kun

Andaki moyayi farovon ast.

Ya'ni: oz-ozdan ilm hosil qil, kichik farovonlikning ildizidir".²

Ushbu baytdan ham yaxshi anglashinib turibdiki Ahmad Donish imkoni yetguncha harakat qilib, davr mohiyati yaxshi anglab, ilm olish bilan shug'ullangan. Keyinchalik saroydagi amaliy faoliyati davomida ham o'z fikr va g'oyalariga sodiq qolib, yoshlarni, ilm ahlini har tomonlama qo'llab quvvatlab kelgan.

1857-yil Amir Nasrullo Peterburgga o'z elchilik delegatsiyasini yuboradi. Elchilar zimmasiga rus hukumatiga Nikolay I (1855-y) vafoti sabab ta'ziya izhor etish va yangi imperator Aleksandr II taxtga o'tirgani bilan qutlash, ya'ni Rossiya va Buxoro o'zaro savdo aloqalarini mustahkamlash va kengaytirish haqida shartnomalar boshlash majburiyati yuklatilgan edi. Ahmad Donish amir hurmat-e'tibori bilan elchilar delegatsiyasining kotibi sifatida boradi. Shaxsan Amir Nasrulloning Ahmad Donishga Rossiyadagi davlat qurilishi va uning hayotini ko'rib, o'rganib kelishni topshiradi. Bu haqda Ahmad Donish shunday yozadi: "Menga shunday topshiriq berilgan edi, mamlakat ichki tartiblarini o'rgan, davlat qurilishiga yaxshi e'tibor ber va bu haqda amir janoblariga yetkaz. Biz qo'shni davlatlar haqida faqat savdogar va sayyohlar so'zlaridangina bilamiz".¹

Buxoro elchilari Peterburgda 1857-yilning yanvaridan 1858-yilning 11-12-yanvarigacha bo'lishadi. Bu vaqt davomida rasmiy uchrashuv va kelishuvlardan tashqari vazirlar bilan Rossiya hukmdor doiralari elchilar missiyasi poytaxtning bir qator diqqatga sazovor joylarini tomosha qiladilar. Shu jumladan texnika instituti, Aleksandrovsk imperator manufakturasi, Isakiv sobori, Forfor zavodi, Imperator botanika bog'i, Imperator FA muzeyi, Pulkovsk astronomiya rsadxonasi, Ssar qishlog' (qirollik) va boshqalar. Ahmad Donish elchilar tarkibida Peterburgda bo'lib, Yevropa madaniyati, ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi mutafakkir dunyo qarashida katta burilish yasadi va o'z taassurotlari ta'sirida Buxoroda mavjud tartiblarni isloh qilish loyihasini olg'a surdi. Ahmad Donishning o'z taassurotlari va isloh qilish haqidagi g'oyalari amirga ta'sir qilmadi. Biroq Ahmad Donish amir Nasrulloning ko'magi bo'lmasa ham harakat qilishdan to'xtamasdan, o'zining taraqqiy etishga qaratilgan g'oyalarini tobora takomillashtirib, bu g'oyani amalga oshirish uchun sabr bardosh ila harakat qilib borishi zarurligini bir lahza bo'lsin unutgan emas.

1860-yil Buxoro taxtiga amir Muzaffar o'tiradi. Uning davrida Samarqand, Jizzax, Qo'qon xonligi Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinadi. Buxoro amirligining qolgan qismi Chor Rossiyasining vassaliga proretoratiga aylanadi. Uning davrida mamlakatning iqtisodiy ahvoli yanada pasayib, amir Muzaffar davrida ham Ahmad Donish amir saroyida faoliyat yuritadi. Borgan sari qoloqlik, qashshoqlik, nochorlik girdobiga tushib, o'z huzur-halovatini yo'qotgan xalqning ahvoriga chin yurakdan achinish hissi Ahmad Donishni battar bejo etardi. U vaziyat agar shu yo'sinda ketsa ertami-kech davlat qulashi, xalq xarob holds kelishi, milliy qadriyatlar esa toptalib, oqibatda yo'q bo'lib ketishini teran anglab yeta olgan kam sonli insonlardan edi.

1868-yilda amir Muzaffarning Chor Rossiyasi bilan tuzgan sulhidan keyin Peterburgga yana o'zining elchilarini yuboradi. Elchilar tarkibida yana Ahmad Donish bor edi. Elchilar delegatsiyasi 1859-yil 2-noyabrdan to 12-dekabrigacha bo'lishadi. Elchilar tarkibida amir o'g'illaridan biri bo'lib, Ahmad Donish yozishi bo'yicha madaniyatsiz, johil Rossiya hukumati haqida hech qanday tasavvurga ega emas bo'lib, Buxoro elchilarining Rossiyaga tashrifi boshidan oxirigacha "kulgili", "sharmandali" bo'lgan.

¹ A.Aliyev. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. T. 2002-y. 314- bet.

² Hasanov. F. "Ma'naviyat yulduzlari" , T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2011-y, 215-b

Elchilar delegatsiyasining oldidagi eng asosiy vazifa imperator Aleksandrga sodiqligi va amir Muzaffarning do'stona munosabatda ekanligini yetkazish, Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyoda bosib olingan yerlarni qaytarishni so'rash topshirig'i edi. Ahmad Donish tushunib yetadiki, bundan hech narsa chiqmaydi va buni utopiya ekanligini tushunadi. Ahmad Donishning yozishicha, Buxoro elchisi imperatorga quyidagi so'zlar bilan murojaat qiladi: "Janob oliylari elchi qilib o'z o'g'illarini yubordilar va imperator janoblaridan egallangan Toshkent, Samarqand, Jizzaxni qaytarishni so'raydi", shunda imperator qo'lini silkitib, oyog'ini yerga urib dedi: "bu hududlar Toshkent gubernatoriga tegishli hudud bo'lib, bu sabab bilan unga murojaat qiling". Ahmad Donish o'ziga shunday savol beradi – "nahotki rus imperatori shunchalik ahmoq bo'lsa, bosib olgan yerlarini shunchalik oson qaytarsa?"

Shunaqa sharmandalik bilan biz yana Toshkentga qaytdik. Shahzoda (Amirning o'g'li) gubernator yerlarni qaytarishga ishonardi. Biroq gubernator quruq va'dalar bilan bizni kuzatib qo'ydi. Biz Buxoroga qaytdik",- deb yozadi Ahmad Donish.¹ Oddiy haqiqatni anglab, fahmlab olishga aqli pastlik qilayotgan bu shahzoda erta kuni kelib butun boshli davlatni boshqarishini tasavvur etishni o'zi ham bir kulguli va o'z o'rnida ayanchli holat edi. Buni yaxshi anglagan Ahmad Donish endi faqat o'zi va o'zning kuchiga tayangan holda ish ko'rishi lozimligiga yana bir bora amin bo'ladi.

"Ahmad Donish kulgi bilan Buxoro elchilarini kuzatadi. Uning qalbida qayg'u va alam paydo bo'ladi".² Ahmad Donish bu haqda "Buxorodan Peterburgga sayohat" nomli asarida yozib qoldiradi. Bu ekchilik delegatsiyasi davrida Ahmad Donish Rossiyaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan yaxshilab tanishadi. Chunki bu uning uchun juda muhim edi. O'zidan ancha rivojlangan davlatni batafsil o'rganish, uning boy tajribalarini tezda o'zlashtirib, yurtida tatbiq etish uchun ham bu sayohat juda zarur edi. "Elchilar delegatsiyasi qatorida qishloq xo'jaligi, geologiya, transport muzeylariga tashrif buyuradi. Undan tashqari rasadxonaga, qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha ekspeditsiya qiladi, shisha va farfor zavodiga, kemalar qurilishi sanoatiga, Kronshtadt qal'asiga boradi. "Цар Кондаль" opera spektakliga, "Конек Горбунук" baletiga tashrif buyuradi."¹ Ahmad Donish Buxoroga qaytgach, amirga elchilarning sharmandali holati haqida gapirib beradi. Ammo bu hech nasani hal qilmaydi. Elchilar yana o'z o'rinlarida davlat organlarida ishlayveradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Aliyev. Ma'naviyat qadriyat va badiiyat, T. 2002-y. 314-bet
2. F.Hasanov. Ma'naviyat yulduzlari, T. 2011-y. 215-bet
3. R.Boytullayev, G.Ostonova, Moziy daftaridan sahifalar. T. 2010-y. 121/122b

¹ Boytullayev. R. Ostonova. G. "Moziy daftaridan sahifalar" T.: 2010-y. 121-b.

² Boytullayev. R. Ostonova. G. "Moziy daftaridan sahifalar" T.: 2010-y. 122-b.